

ZAMONAVIY INTERNET TARMOG'INING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

*Toshpulatov Suhrob Shavkatjon o'g'li  
Abdujabborov Dilshodjon Doniyorjon o'g'li  
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti  
Samarqand filiali "Kompyuter injineringi"  
KI22-04 guruhi talabalari*

*Email: [toshpulatov093004@gmail.com](mailto:toshpulatov093004@gmail.com)  
Email: [dilshodbekabdujabborov21@gmail.com](mailto:dilshodbekabdujabborov21@gmail.com)  
+998904655054; +998931131002*

**Anotatsiya:** Maqola internet paydo bo'lishi, internetdan oqilona foydalanish, uning yaxshi va yomon taraflari, kiber xavsizlik, qisqacha internet tarmog'idagi terrorchilik va ezgulik g'oyalari haqida.

**Kalit so'zlar:** Internet, kompyuter, telefon, texnologiya, yoshlar, president, kasb, terrorchilik, ezgulik.

Hozirdan barchamiz internet nima ekanligi haqida oz bo'lsa ham o'zimizga kerak bo'ladi ma'lumotlarni bilamiz. Internet bizga kerakli ma'lumotlarni oson va tezda topishimizga yordam beradi. Va hozir biz qisqacha dunyo o'rgimchak to'riga aylangan internetning kelib chiqishi haqida gaplashamiz.

Hozirgi internetning yaratilish tarixi 1950-yillarda kompyuterlarning rivojlanib borishi bilan birga turli mamlakatlarda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va ko'pgina yevropa mamlakatlarida ilmiy va harbiy laboratoriyalarda global kompyuter tarmog'larining ilk ilmiy va amaliy konseptsiyalarining payda bo'lishi bilan boshlangan.

Internetning ilk yaratilish tamoyillari birinchi marotaba 1969-yilda AQSH harbiy agentligi DARPA buyrug'i bilan yaratilgan ARPANET tarmog'ida qo'llanilgan. ARPANET yutuqlaridan foydalanib, 1984-yilda AQSH Milliy fan fondi universitetlar va kompyuter markazlari o'rtaсидаги aloqa uchun NSFNET tarmog'ini yaratdi. Yopiq ARPANET dan farqli o'laroq, NSFNET ularish uchun nisbatan bepul edi va 1992-yilga kelib, unga 7500 dan ortiq kichik tarmoqlar, jumladan 2500 tasi AQShdan tashqarida ulangan. NSFNET yadro tarmog'ining tijorat maqsadlarida foydalanishga o'tkazilishi bilan zamonaviy Internet paydo bo'ldi. 1980-yillarga qadar kompyuter tarmoqlari asosan ixtisoslashtirilgan muassasalar xodimlari uchun mavjud edi va 1980-yillarda shaxsiy kompyuterlar (ShK) shaxsiy foydalanishda tarqala boshladi, bu esa tarmoqlarga katta talabni keltirib chiqardi.

Ko'pchilik internetdan telefon orqali o'ziga kerakli ma'lumotlarni topib foydalansa kerak. Biz bilgan hozirgi mobil internet birinchi marta 1998-yilda CSD-ulash vositasida paydo bo'lgan, lekin 2000-yilga kelib keng tarqala boshlagan. Har bir

inson o'zi sarflagan internet uchun pul to'laydigan internetning yangi ulanish turi WAP paydo bo'ldi. Shundan so'ng mobil internet odamlar orasida keng tarqala boshladi.

Bugungi kunda internetning 3G va 4G ulanish turlari mashhur hisoblanadi. Bu ulanish turlari chatlarda muloqot qilish uchun qulaylik yaratib beradi va bu tur internet foydalanuvchilari orasida katta e'tiborlarga sazovor bo'ldi.

Biz bu mavzuda gaplashar ekanmiz yoshlarning internetdan foydalanishiga eng ko'p jalb qiladigan narsalar bu ijtimoiy tarmoqlar va mobil o'yinlar hisoblanadi. Yaqin 10 yil ichida mobil telefonlar, kompyuterlar shunchalik ko'payib rivojlanib ketdiki, hozirgi kunchalik hayotimizni bu texnikalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Hozirda ko'chada ketayotib ham yosh-u, qarining qo'llaridagi telefonlarga ko'zimiz tushadi. Ayniqsa yoshlar internetdan juda ko'p vaqtini telefondan foydalanib sarfalaydi. Hozirda O'zbekistonda xalq mobil o'yin deb aytيلayotgan Pubg o'yini keng tarqalgan. Yoshlarning juda ko'pgina vaqtлари mana shu o'yinda o'tadi. Bunga sabab ota-onaning bolani bo'sh vaqtini telefon bilan to'ldirishdir. Buning o'rнiga bolani kerakli fan va sport to'garaklariga berishni tavsiya etaman, Bunda bola ham aqlan, ham jismonan chiniqadi. Bolaga ko'proq kitob bering, shunda bolaning fikrashi va dunyo qarashi rivojlanadi. Prezidentimizning "5 muhim tashabbus" loyihasidagi uchinchi tashabbusi "Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish" men tanlagan mavzuga aynan mos keladi.

Hozirda axborot va texnologiyalar rivojlanish davrida internet orqali pul topish osonlashib ketdi. Kimdir halol yo'l bilan pul topsa kimdir g'araz niyatda birovlarining pullarini tortib olmoqda. Internet orqali halol pul topishning yo'llari ko'p. Masalan hozirgi rivojlanib borayotgan IT sohasi eng ommabop kasblardan biri hisoblanadi. Bu soha orqali siz dasturchilikni, grafik dizaynerlikni, mobilograflikni, smmchilikni, vediomontajyorlikni o'rganasiz. Internet orqali pul ishlash deyilganda faqat kasblarni tushunmaylik. Hozirda O'zbekistonga kirib kelgan Kiber sport ya'ni "Easport Uzbekistan" federatsiyasi ham tuzildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 16-noyabrda mamlakatimizda kibersportni rivojlantirish va ommalashtirish haqidagi qarorni imzoladi. Bu qarorda kibersportni rasman alohida sport sifatida tan olinganligi, bu sport turi haqida professional kibersportchi va murabbiylar, malakali hakamlar va sharhlovchilar, shuningdek boshqa mutaxassislarni tayyorlash to'grisidagi tizimni joriy qilingan. Kibersport turi bo'yicha sovrinli respublika va xalqaro championatlar va turnirlar, xalqaro va mintaqaviy musobaqalarda munosib ishtirok etish rejalashtirilgan. Kibersport faoliyatini o'zini o'zi band qiladigan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritilgan.

Shuningdek, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida 2023/24 o'quv yilidan boshlab "Sport faoliyati: Kibersport" bakalavriat ta'lif yo'naliishi ochiladi va o'qish muddati 3 yil deb belgilanadi.

Hozirgi davrda asrimizning global muammolari qatoriga ya'ni kiberjinoyatchilik kirib kelganiga ancha bo'ldi. Bu jinoyatchilikning bizga ma'lum bo'lgan jihatlari virusli dasturlarni tarqatish, kredit kartadan pullarning o'zlashtirilishi, parollarning buzib kirilishi, shuningdek qonunga zid bo'lgan axborotlar, manaviy buzuq g'oyalar ma'lum. Bu jinoyatchiliklar bizning hayotimizga xavf solmaydi deya olmaymiz shu bilan birga bunga qarab tura olmaymiz. Shuning uchun biz o'z xavfsizligimizni saqlagan holda o'z shaxsiy ma'lumotlarimizni internetda duch kelgan odamga bermasligimiz, karta raqamlarimizni, parol va boshqa narsalarni olib qo'ymasligimiz kerak. Hozirda ko'p insonlarning kartalaridan pullarni bank hodimimiz deb yechib olinishini ko'rshimiz mumkin. Shuni eslab qolaylik, hech bir bank hodimi sizdan kartangizni raqamini va parolini so'ramaydi.

Mustaqillikga erishganimizdan so'ng yurtimizda islom dinining rivojlanishi, musulmonlarning diniy ibodatlarini emin-erkin ado etishlari uchun keng shart sharoitlar yaratilib berildi. Bu erkinliklarni ko'rolmaydigan hasadgo'y kimsalar aholi orasida noroziliklarni keltirib chiqarish maqsadida internet saytlariga "bu diyorda diniy erkinlik yo'q, islomiy bilim olish cheklangan, ibodat qiluvchilar taqib ostida" deb turli xil uydurmalarini joylab tarqatmoqda. "Axborot asri" deb atalgan hozirgi zamonda ma'lumot olish va axborotlarni ulashish uchun qulay vosita bu internetdir. Tangani ikkinchi tomoni bo'lganidek internetda faqat yaxshi narsalar emas balki yomon narsalar ham aralash-quralash oq-qora, ezgulik va yovuzliklar ham o'rinni olgan. Hozirda ma'lumotlarni tarqatish, biznes va reklama uchun katta maydonga ega internet tarmoqni nazorat qilishning imkonini yo'q. Xalqimizda "Ogoh bo'lgan abgor bo'lmas!" degan naql bor. Shunday ekan bu "O'rgimchak to'ri" deb atalgan internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish uchun O'zbekistonning rasmiy uz. domenidagi saytlardan foydalanishni maslahat beraman.

**Xulosha:** Internetdan hamma ham birdek tog'ri foydalanmaydi. Shuning uchun uka, singil va boshqa yaqinlarimizga undan to'g'ri foydalanishni o'rgataylik. Bo'sh vaqtclarini unumli o'tkazishiga yordamlashaylik. Ularni rasmiy bo'limgan diniy saytlardan, tarqalgan terroristik g'oyalardan saqlaylik, shu jumladan o'zimiz ham ehtiyyot bo'laylik Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" degan so'zlarini yodda tutaylik. Bu so'zlar bugungi kunda har qachongidan-da muhimdir.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://www.texnoman.uz/post/internet-tarixi.html>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Internet>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/16/cybersport/>
4. <https://iiv.uz/news/kiberjinoyatchilikka-qarshi-kiberxavfsizlik>
5. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=48>
6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
7. Саматов Х. У. ПАРАДИГМАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА //Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика. – 2022. – С. 406-408.